

**AMIR TEMUR DAVRIDA TANGALAR TIZIMI VA PUL MUOMALASI**

*Shahrisabz davlat muzey qo'riqxonasi*

*filial mudiri Qambarov G'ayrat*

*va Ilmiy hodim Suyarov Mavlon*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temur davrida pul islohati va pul zarb qilinadigan shahar zarbxonalari haqida so'z boradi.

**Kalit so'z:** Moneta, Amir Temur, Temuriylar davri, tanga, numizmatika, pul muomalasi, tanga zarbi, iqtisodiy siyosat, davlat moliyasi, savdo munosabatlari, tarixiy manba.

**Annotation:** This article discusses the monetary reform and the city mints that minted money during the reign of Amir Temur.

**Keywords:** Coin, Amir Temur, Timurid period, coin, numismatics, monetary circulation, coinage, economic policy, state finance, trade relations, historical source.

**Аннотация:** В статье рассматривается денежная реформа и городские монетные дворы в период правления Амира Темура.

**Ключевые слова:** Монета, Амир Темура, эпоха Тимуридов, монета, нумизматика, денежное обращение, чеканка монет, экономическая политика, государственные финансы, торговые отношения, исторический источник.

Sohibqiron Amir Temur Ibn Tarag'ay Bahodir XIV-XX asrlarda markaziy Osiyoda poytaxti Samarqand shahri bo'lgan ulkan imperiyaga asos soldi. Harbiy kuch-qudrat bobida bu davlat qanchalik kuchli bulmasin ijtimoiy va iqtisodiy sohada bu davlatning uzoq yashab qolishi uchun yangi reformalar (islohat)zarur edi. Sohibqiron Amir Temur saltanat jilovini uz quliga olgan dastlabki yillariga harbiy sohada keng islohatlar olib bordi. Keyinchalik mamlakat el-ulusni hotirjam yashashi uchun Buyuk ipak yo'lida joylashgan johon savdo yo'lining asosiy qismi bo'lgan. Movaunnaxr Xuroson uchun yangi pul islojati kerakligini tushungan holatda moliya sohasida bir qadar yangi islojatlar o'tkazadi. Buning asosiy sabablari shunda ediki xar qanday davlat uchun armiya (xarbiy qo'shin) xazina qanchalik muhim bo'lsa mamlakat aholisi o'rtasida muomilada bo'lgan pul shu darajada o'ta ahamiyatli edi. Qo'shni davlatlar bilan bo'lgan oldi-berdi savdosida ham asosiy vosita bo'lib pul (moneta) mamlakat kuch qudratining asosiy ramzi hisoblangan. Ming yillar davomida mamlakat yoki davlatlar o'rtasida savdo aloqalarida asosiy vosita pul hisoblanib u uch (3) xil ko'rinishga ega edi.

1.Mis tanga

2. Kumush tanga

3. Oltin tanga

Aholi o`rtasida qulaylik yaratish maqsadida pul birligi tanga (moneta) shaklida keltirilgan bo`lib mis tanga kumush tanga oltin tanga ma`lum miqdordagi o`lchov birligida bo`lgan. Bu uchala tanganing o`g`irlik va xajmining kattaligi uning qiymat darajasining belgilab bergan. Qadim qadim

zamonlarda ham pul Evroosiyo, Afrika materigi pul tanga shaklida maxsus zarbxonalarda zarb qilingan. Mamlakat axolisi o`rtasida savdo-sotiq, oldi-berdi ishlarida bu uchala pul birligi keng qo`llanilsada ammo xalqaro savdo-sotiq ishlarida asosan kumush tanga pullari keng qo`llanilgan. Sabab merkantimizim saiyosatiga qat'iy amal qilgan musulmon sharqida oltin pul birligini chet mamlaktlarga chiqib ketishga yo`l quymagan. Mamlakat axolisidan olinadigan soliqlar, savdogarlardan olinadigan soliqlar ko`pincha kumush va oltin pullar hisobidan undirilgan.

Sohibqiron Amir Temur chorak asr davomida harbiy yurishlar natijasida ulkan imperiya bunyod etdi. Fatx etilgan ulkan davlatlar shahar-qishlaqlari Temurbek davlati xazinasini uchun xar yili oltin tanga pul birligida soliq o`lpon to`laganlar.

Ammo shuni nazardan qochirmaslik kerakki Sohibqiron Amir Temurdan oldin xam fatx etilgan mamlakat axolisidan shaxar- qishloqlardan soliq ulponlar oldin pul birligida o`ndirilgan. Bunga misol qilib mug`ul xoni Chingizxon va uning avlodlarini aytishimiz mumkin.

Soxibqiron Amir Temur o`zi bevosita Chingizxon avlodidan bo`lmaganligi uchun o`zini "Amir" deb ataydi.

Milodiy 1372-yildan 1388-yilga qadar qo`g`irchoq xon Suyurg`otmish, undan keyin esa uning o`g`li Mahmudxon nomidan ish yuritadi. Tangalarga esa ularning nomi bilan birga o`z nomini xam qo`yib zarb qildiradi. 1402-yili Mahmudxon vafot etgach Soxibqiron Amir Temur boshqa qo`g`irchoq xon tutmay o`sha Mahmudxonning nomi bilan pul zarb qilishni davom ettiradi.

Musulmon sharqida sodiq qolgan Soxibqiron Amir Temur tangalarida qo`yidagilardan iborat.

Tanganing old tomonida muqaddas Qur`ondan " La ilaha illalloh Muxammadar rosul Ollox, tangalarning to`rt burchagi esa to`rt xalifa: Abu Bakr, Umar, Usmon va Alilarni yozdirdi. Tanganing orqa tomoniga esa: (Suyurg`otmishxon yorlig`i Amir Temur kurogan akmanu) deb yozilgan. Ushbu tanga O`zbekistan xalqlari tarixi muzeyining numizmatika fondida N-401/1 Samarqand shaxri muzey qo`riqxonasi fondida saqlanadi. Ushbu tangalarning aksari qismi kumush tanga bulib, og`irlik vazni 6 grammni tashkil qilgan bo`lsa, uni tanga deb atalgan.

Tanganing to`rtidan biriga to`g`ri keladigan 1,5 grammlik kumush pullar esa "mir" deb yuritilgan. Undan boshqa kundalik turmushda ishlatiladigan juda kup mis chaqalar Amir Temur nomi bilan zarb qilingan.

O`rta asrlar yoki Temuriylar sulolasi xukumronligining yana bir axamiyatili jixati shundan iboratki bu uchala qiymatdagi va baxodagi tanga (moneta) pullar imperiya xududida fatx etilgan davlatlarning katta-katta shaxar zarbxonalarida zarb etilgan, ularning og`irlik va o`lchov birligi deyarli teng bo`lgan.

Tanga pullar poytaxt shaxar bo`lmish Samarqand "Buyuk Ipak Yuli" asosiy savdo shaxri Buxoro shaxri iroqi ajom yurtlarining eng katta shaxarlari Ardobil, Astrobod, Astra, Dardand, Damg`on, Boku, Maxmudobod, Mordin, Isfaxon, Qum, Kirmon, Qason, Shadanqara, Xoy, Tabriz, Sabzavor, Sava, Sheroz, Shemoxa, Sharbon singarin qirqqa yaqin shaharlarda zarb qilingan o`zimizning isboti sifatida quyidagilarni bayon qilamizki masalan:

1 Sulton Maxmudxon yorlig`i Amir Temur Kuragon Xoldallox mulikuxu zarb Astrobod

2 Sulton Mahmudxon Amir Temur ko`ragon zarb Boku

3 Sulton Mahmudxon yorlig`i Amir Temur Kuragon zarb Bag`dod.

Bunday misollarni k`yapgina keltirish mumkin.

Amir Temurning geometrik va xar hil nafs naqshlar bilan bezatilgan tangalariga nazar tashlar ekanmiz ko`z ungimizda bu tangalarga o`rilgan tamg`alar uchta chambaraksimon kichik xalqalardan iborat.

Kastilioya qirolining elchisi Rui Gonzalis De Klavixoning fikricha, bu tamg`alar "Temur uch tomonmning xukumdori" –degan ma`noni anglatadi.

Soxibqiron Amir Temur saroyida arab yozuvi bilan (uyg`urcha) yozuv xam qo`llanilgan. Bu yozuv bilan bitilgan yozma yodgorliklar va yorliqlar temuriylar sulolasining eng oxirgi vakillari davrida xam ishlatib kelingan.

Sohibqiron Amir Temur tangalarida biz arabcha, forsha turkcha va mug`ilcha so`zlarni o`qiymiz. Masalan arabcha: Ollox va uning podsho va sultonligini mangu boqiy qilsin, Forscha-zarb, turkcha-so`zim, mo`g`ilcha-akmanu (mening so`zim), ko`ragon (kuyov) singari so`zlarni uchratamiz.

Sahibqiron Amir Temurning deyarli barcha davlat xujjatlarida, farmonlarida yoki u haqida yozilgan saroy tarixchilari muarrixlar asarlarida yoki Temurbek bilan zamondosh bulgan olimu ulomolar asarlarida deyarli barcha tanga pullarida kuragon so`zini uchratamiz. Sahibqiron Amir Temur o`zining dushmani bo`lgan Amir Husayni qatl ettiradi va uning qaramidagi Chig`atoy avlodidan bo`lgan Qazag`an qizi Saroy Mulk xonimga uylanadi. Shu sabali Amir Temur o`zini "Ko`ragon" xonning kuyovi deb e`lon qiladi.

Sohibqiron Amir Temur pul borasida olib borgan islohoti ulkan imperiyani boshqarish fuqarolar o`rtasida ijtimoiy-iqtisodiy muomalaning bir qadar yaxshilanishiga olib keldi. Ayniqsa Buyuk Ipak Yo`li chorrahalarida joylashgan Movarounahr shaharlari bo`lmish Samarqand, Buxoro shaharlarida xalqaro savdo sotiq ishlari jonlanib ketdi. Fuqarolarning hayotga va ertangi kunga bo`logan

ishonchi oshdi. Xitoy, Hindistondan to Yevropa qit'asigacha bo'lgan xududlarda savdo-sotiq ishlari yo'lga qo'yildi.

Xulosa qilib shuni shuni aytamizki Sohibqiron Amir Temur jahon tarixida o'zini adolatli reformalari bilan yorqin iz qoldirgan.

Shahrisabz davlat muzey qo'riqxonasi fondida Amir Temur va Temuriylar davrida zarb etilgan yuzga yaqin mis va kumushdan tangalar kolleksiyasi mavjud. Bu tangalar hozirda muzey qo'riqxonaning fondida saqlanadi. Qizig'i shundaki Sohibqiron Amir Temurning tug'ilgan shahri bo'lmish qadimiy Kesh-Shahrisabz shahrida zarb qilingan tangalar haqida biror-bir ma'lumot topolmadik. Lekin keyingi xonlik va amrlik davrida qadimiy Shahrisabz shahrida zarbxonalar mavjud ekanligi va bu yerda ham mis pullar zarb qilingani haqida ma'lumotlar bor.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Temur va Temuriylar sulolasinig tangalari. Muallif I. To'xtiyev. Fan nashriyoti 1992-yil Toshkent sh.
2. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma Toshkent 1972-yil.
3. Ртвиладзи Э.В. Термизский Клад Монет Темура и Халил Султана. 1969-8-9стр
4. Бардолът В.В. соб соч Т. 1963стр 99.